

## MAMLAKATIMIZ QISHLOQ XO‘JALIGINING ASOSIY KO‘RSATKICHLARINING TAVSIFLARI

**Bekzod Umarov Baxtiyorjon o‘g‘li**

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyaar instituti assistenti

**Begijonova Mahmuda Ma‘rufjon qizi**

Andijon davlat universiteti talabasi

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada davlatimiz rahbarining qishloq xo‘jaligi masalalari bo‘yicha oliy majlisga murojaatnomasi, dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlarida yillar kesimida maydonlar va olinayotgan mahsulotlar hajmining o‘zgarish ko‘rsatkichlari hamda agrar sohaning rivojlantirish yo‘llari haqida ilmiy ma‘lumotlar berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Qishloq xo‘jaligi, mehnat unumdorligi, dehqonchilik va chorvachilik, paxta maydonlari, eksport-import aylanmasi.*

### АННОТАЦИЯ

*В данной статье обращение главы нашего государства к Верховному Собранию по вопросам сельского хозяйства, показатели изменения площадей и объемов продукции, полученной в областях земледелия и животноводства по годам, а также научная информация о путях развития аграрного сектора.*

**Ключевые слова:** *Сельское хозяйство, производительность труда, земледелие и животноводство, хлопковые поля, экспортно-импортный оборот.*

### ANNOTATION

*In this article, the address of the head of our state to the Supreme Assembly on agricultural issues, the indicators of changes in the area and the volume of products received in the fields of agriculture and animal husbandry over the years, and scientific information about the ways of development of the agrarian sector are given.*

**Key words:** *Agriculture, labor productivity, agriculture and animal husbandry, cotton fields, export-import turnover.*

## KIRISH

Joriy yilning 6-sentyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qishloq xo‘jaligini 2020-2030 yillarda rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan yig‘ilish o‘tkazdi. Keyingi yillarda qishloq xo‘jaligini islox qilish va bozor mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirildi. Davlat xarid narxlari qariyb 3 barobarga ko‘paytirilgani natijasida manfaatdorlik oshdi. Paxtachilik va g‘allachilik hashar emas, chinakam daromad manbaiga aylandi. Yangi texnologiya va innovatsiyalarni joriy qilish, mehnat unumdorligi va ish haqini oshirish maqsadida 76 ta paxta-to‘qimachilik klasterlari tashkil etildi. Joriy yilning o‘zida 25 ming gektar paxta maydonlarida suv tejoychi yangi sug‘orish tizimi joriy qilindi. Foydalanishdan chiqqan 1 million 100 ming gektar yerni qayta ishga kiritish bo‘yicha sa’y-harakatlar boshlandi.

Bular, albatta, yaxshi natijalar, lekin mazkur ishlar – islohotlarning birinchi bosqichi. Prezident faqat bugunni emas, balki ertangi kunni ham o‘ylab, uzoqni ko‘zlab islohotlarni yangi bosqichga ko‘tarish vazifasini qo‘ymoqda. Shu maqsadda qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasi ishlab chiqilmoqda. Bu iqtisodiyotning asosiy o‘sish nuqtasi, “drayveri” bo‘ladi. Ming-minglab ish joylari yaratiladi, odamlarning daromadi oshadi deb aytdi mamlakatimiz rahbari. Yaqin yillar ichida yerlar maydonini o‘zgarish tendensiyasini kuzatadigan bo‘lsak quyidagi xulosaga kelamiz.

Qishloq xo‘jaligi ekinlari ekilgan maydoni (ming gektar hisobida)

2017-yil 3474,5

2018-yil 3396,0

2019-yil 3309,4

2020-yil 3396,1

Yuqorida ko‘rib turganimizdek yurtimizda qishloq xo‘jalik yerlari ko‘payish emas balki kamayish holatida bormoqda. Chunki yildan-yilga ekin maydonlari o‘nida aholi yashash manzilgohlari, avtomobil yo‘llari, korxonalar va muhofazaga olingan hududlar tashkil qilinmoqda. Buning evaziga unumdorligi yuqori bo‘lgan ekin

maydonlari qisqarib bormoqda. Quyida beriladigan ma'lumotlarda dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlarida yillar negizida olinayotgan daromadni ko'rishingiz mumkin.

Dehqonchilik hajmi (mlrd so'm) hisobida

2017-yil 83303,4

2018-yil 98406,4

2019-yil 111904,8

2020-yil 123556,0

Chorvachilik hajmi (mlrd so'm) hisobida

2017-yil 64895,9

2018-yil 89019,2

2019-yil 104378,3

2020-yil 126198,5

Berilgan ma'lumotlardan xulosa qilib aytsak, O'zbekistonda qishloq xo'jalik sohasi bo'yicha tubdan o'zgartirishlar kiritilmoqda. Ekin navlari yangilanmoqda, chorvachilik yo'nalishida chetdan zotdor, mahsuldorligi yuqori bo'lgan qoramollar, echki, baliqlar, tuyaqush, parrandalar va boshqa turdagi hayvonlar olib kelib O'zbekiston sharoitiga moslashtirilmoqda. Qishloq xo'jaligi mahsulot unumdorligi qanchalik yuqori bo'lsa chetdan keltirilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari importiga barham beriladi. Ehtiyojdan ortgan mahsulotlarni chetga eksport qilinsa, yurtimizda hosil bo'layotgan yalpi ichki mahsulot hajmini yanada ko'payishiga olib keladi va O'zbekiston taraqqiyotiga juda katta hissa qo'shadi.

### ***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)***

1. *Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 6-sentyabrdagi Oliy Majlisga qilgan murojatnomasi.*

2. *O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasining 2021-yildagi statistik to'plami.*